



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH MUAMMOLARI

*Sapayeva Nigora Mirxamidovna
Toshkent shahar Shayxontohur tumani
Xalqaro islom akademiyasi qoshidagi
«Ziyo-Zukko umumta'lim maktabi”
NTM boshlang`ich ta`lim o`qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘qitish va rivojlantirish jarayonining o‘zaro aloqadorligi muammosi didaktikaning yetakchi muammolaridan biri ekanligi tahlil qilinadi. Mazkur muammo doirasida bir qator didaktik vazifalarning yechimini ishslash talab qilinadi. Jumladan, o‘quv-biluv vaziyati va bilish jarayonini rivojlantirishning o‘zaro aloqadorligi kabi

Kalit so‘zlar: o‘quv vaziyati, topshiriq, o‘quvchi, borliq, muammo, faoliyat, vosita.

KIRISH

Ko‘pgina mutaxassislar shaxsning rivojlanishi moddiy olam bilan bog‘liq bo‘lib, inson turmush tarzi uning ongini belgilaydi, deb hisoblaydilar. Insonning bolalikdagi rivojlanishida o‘quv-biluv faoliyati muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchilar bilish faoliyatining rivojlanishi bиринчи navbatda ularning ilmiy hodisalar, fikrlar, g‘oyalar, dalillar va ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishlari natijasida amalga oshadi.

Pedagogika fanida rivojlanish va o‘qitishning o‘zaro aloqadorligi o‘ziga xos tarixiy taraqqiyot yo‘liga ega. Dastlab pedagoglar o‘quvchilarning rivojlanishi o‘z-o‘zidan amalga oshadi, degan fikrni ilgari surganlar. Keyinchalik esa, ta’limning rivojlanishga bo‘lgan ta’sirini aniqlaganlaridan so‘ng ular bu ta’sirning avtomatik xarakterga ega ekanligini ta’kidlaganlar. O‘qishning keng qamrovligi va ko‘pqirraliligi bilan ko‘rsatilgan muammo ta’lim va rivojlanishning o‘zaro aloqadorligi tarzida tushunila boshlandi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik-psixologiyaning yetakchi namoyondalari ta’lim va rivojlanish mukammosini o‘rgangan mutaxassislar L.S. Vigotskiy, V.V.Davidov, E.G‘ozievning ishlarida bu masala o‘z ifodasini topgan. Shu bilan bir qatorda, ular o‘quvchilarni o‘qitish va aqliy rivojlantirish muammosi bo‘yicha shaxsiy nuqtai



nazarlarini vujudga keltirdi. Mazkur nuqtai nazarning asosiy mohiyatini L.V. Zankov quyidagicha ifodalagan edi: “yaxshi tashkil etilgan o‘quv jarayoni o‘quvchi rivojlanishini jadallashtiradi. Ta’lim nafaqat yakunlangan turkumlarda quriladi, balki birinchi navbatda hali yetilmagan ruhiy vazifalarda namoyon bo‘lib, ularning shakllanishini ilgarilatadi” [2].

Ko‘plab psixologlar L.S.Vigotskiyning yondashuvlariiga tayangan holda o‘qitish va rivojlanish muammosini har tomonlama o‘rganishga intildilar. Yondashuvlarning asosida ta’limning ikkiyoqlama jarayon ekanligi haqidagi g‘oya o‘z ifodasini topgan. Unda faoliyatning ikki turi o‘zaro aloqaga kirishadi: o‘qitish va o‘rganish jarayonida faoliyatning ikkita sub’ekti ishtirop etadi. Ular o‘qituvchi hamda o‘quvchi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Izlanishlarimizning asosini muayyan o‘quv vaziyatlarida o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llarini izlash tashkil qiladi. O‘z-o‘zini hurmat qilish har bir shaxsnинг tahliliy sifatidir. Mazkur sifatning tarkibini tahlil qilish orqali biz o‘quvchining mayllari, qadriyatları, tayanadigan qoidalari ushbu tarkibning asosini tashkil qilishini aniqlashga muvaffaq bo‘ldik. Bu o‘quvchilarning jadal faoliyatları orqali namoyon bo‘ladi. O‘quvchi bilish faoliyati jarayonidagi yo‘l qo‘yilgan xatolar uning kayfiyati va rivojlanishiga muayyan ta’sir ko‘rsatadi.

Mavjud ilmiy manbalarning tahlili va amalga oshirilgan kuzatishlarimiz natijasida biz o‘quvchilardagi bilish faoliyati quyidagi tarkibiy qismlardan iborat ekanligini asoslashga harakat qildik [3]:

- bilish qiziqishlari;
- o‘quv maqsadlari;
- shaxsiy tajribalar hamda ko‘nikmalar;
- shaxsiy tajriba hamda bilim.

O‘quvchilarning bilish faoliyatlarini jadallashtirish – bugungi kunda pedagogikaning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Uning dolzarbligi metodik usullar va vositalarni izlash, ishlab chiqish zaruriyati bilan belgilanadi. O‘quvchilarning bilish faoliyatlarini jadallashtirish muammosini yechish uchun o‘quv materiallarining nazariylik darajasini kuchaytirish bilan bir qatorda, o‘quvchilarga bilish metodlarini izchil tarzda o‘rgatish talab qilinadi. Bu tadbir muayyan o‘quv vaziyatlarida amalga oshiriladi. Muayyan o‘quv vaziyatlarida o‘quvchilarni bilish metodlari va usullari bilan qurollantirish talab qilinadi. Buning



natijasida o‘quvchilar tafakkurining rivojlanishi bilishga asoslangan boshqa ruhiy holatlarga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quvchilarda o‘quv faoliyatiga oid ko‘nikmalarning shakllanmaganligi o‘quv jarayonini samaradorligi pasayishiga olib keladi. Buning natijasida o‘quvchilarning o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklari kuchayib, o‘quv-biluv mayllari yo‘qoladi.

O‘quv-biluv jarayonida bilish faolligini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda o‘quvchilarning mustaqilligidan kelib chiqqan holda o‘quv jarayonida ular faolligini ta’minlashning uch yo‘nalishi ajratilgan:

- namunaga asoslangan taqlidiy;
- izlanuvchilikka asoslangan ijrochilik;
- ijodiy bilish faoliyati.

An’anaviy ta’lim sharoitida bilish faoliyati o‘qituvchining o‘quvchilarga tayyor bilimlarni uzatishi va o‘quvchilarning mazkur bilimlarning o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan harakati sifatida tushuniladi. Mutaxassislar bosqichma-bosqich bilish faoliyatining yangi darajalariga o‘tish zarurligini tushuna boshladilar. Dastlab bilimlarning muayyan qismi, keyinchalik esa barcha axborotlar o‘quvchilarga tayyor tarzda uzatilmasligi lozimligini mutaxassislar nazariy jihatdan asoslay boshladilar. O‘qituvchi o‘quvchilarga muloqot asosida taqdim etadigan axborotlarning muayyan qismi mustaqil izlanish uchun asos bo‘lishiga erishish nazarda tutila boshlandi. Bugungi kunda tushunishga asoslangan o‘quv jarayonidan muammoli ta’lim jarayoniga o‘tish zarurligini barcha o‘qituvchilar tushunib yetmoqdalar.

XULOSA VA MUNOZARA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirish uchun ona tilining so‘z boyligi bilan o‘quvchilarni tanishtirish vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning nutqiy tafakkurini shakllantirish uchun dastlab, o‘quvchilar oldiga muammoli savollar qo‘yish lozim. Mazkur savollar yordamida esa muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish kerak. Bunday vaziyatlar o‘quv topshirig‘ini bajarish zaruriyati va bu vazifani o‘quvchilarning mavjud bilimlari va ko‘nikmalari yordamida bajarish imkonsizligi natijasida vujudga keladi. Mazkur nomuvofiqlikni anglash natijasi sifatida o‘qituvchining bilish mayllari namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarni yangi bilimlar va axborotlarni o‘zlashtirishga undaydi. Ular muammoli savollarga javob topishning usullari va vositalarini izlay boshlaydilar.

**ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Roziqov O., Og`aev S. Ta`lim texnologiyasi. –T.: 2019. –71 b.
2. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. - Sankt-Peterburg: "Peter" nashriyoti, 2020.-712 b.
3. Safarova R., Musaev U.Q., Musaev P. va boshq. O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta ta`lim strategiyasi muammolari va ta`lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo`llari. –T.: Fan, 2015. – 255 b.
4. Toshimov R.Yu. Axloqiy tarbiyaning ba`zi masalalari. – T.: “O`qituvchi” 2014. –14 b.